

"Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" mavzusida tadbir

"Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" mavzusida tadbirlar tashkil etilmoqda. TIQXMMI "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasining professor-o'qituvchilari dos. A.Berdishev, dos. O'.Xaliquzzarov, ass. A.Turdiboevlar 2020 yil 18 noyabr kuni O'rta Chirchiq tumanidagi "Gulzor" MFY hududidagi 45-umumiyligida ta'limga mohiyati qo'shilishida tashkil etilgan tadbirda ishtirok etdilar. Tadbirda, "Gulzor" mahallasi aholisi vakillari, nuroniylar, otaxonlar, xotin-qizlar kengashi a'zolari, maktab o'qituvchi va o'quvchilari, hamda bir qator faollar qatnashdilar.



Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi bilan boshlandi. Tadbir o'ta ko'tarinki kayfiyatda va karantin qoidalariiga rivoja qilgan holda o'tkazildi. Tadbirning ochilishida "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasini mudiri, dos. A.Berdishev so'zga chiqib yurtimizda keyingi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy sohalardagi islohotlarning tub mohiyati haqida tadbir ishtirokchilariga yana bir bor gapirib o'tdilar. Ma'ruzachi keyingi yillarda yurtimizda ko'pgina sohalarda qo'lga qiritilayotgan ulkan yutuqlarga alohida to'xtab o'tdi. Taqdimot bilan boyitilgan ushbu ma'ruza tinglovchilarda katta taassurot qoldirdi.



Tadbirda 45-maktab direktori A.Isakov, Gulzor MFY raisi G'.Turduqulovlar xam o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Tadbir badiiy qism bilan davom etdi. Badiiy qismda O'rta Chirchiq tumani badiiy havaskorlari va 45-maktab badiiy to'garaklarining ishtirokchilari hamda bir qator sportchi yoshlar o'z chiqishlari bilan yig'ilganlarni xushnud qildilar. Tadbirda 45-maktab o'qituvchilari va o'quvchilari tamonidan o'zbek, rus, ingliz tillarida tadbir ishtirokchilarini tabiriklashdi. Bundan tashqari maktab o'quvchilari tayyorlagan har xil shirinlik sayili va kitob yarmarkasi tashkil etildi. Tadbirda "Bilimdon-zukkolar" bellashuvi o'tkazildi. Bellashuv g'oliblariga va tadbirning faol ishtirokchilariga dos. A.Berdishev va MFY raisi nomidan turli-xil esdalik sovg'alari ulashildi. Tadbir juda ko'tarinki ruhda va yuksak saviyada o'tkazildi.



TIQXMMI matbuot xizmati